An'anaviy oila sharoitida kelinlarda noadaptiv psixologik himoya mexanizmlarini kamaytirish bo'yicha psixokorreksion yondashuv .....	554
<b>Qobilova Nasiba Ismatjon qizi</b>	
Ona tili ta'limida kreativ yondashuv asosida o'quv jarayonini modellashtirishning pedagogik shart-sharoitlari .....	557
<b>Qulmuminov O'rolboy Safar o'g'li, Jumayeva Hulkar Panji qizi</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanish dinamikasi .....	562
<b>Ravshanova Gulnoza Burxonovna, Turdiboyeva Umida Ravshan qizi, Norjigitova Rohila Abduvoid qizi</b>	
Ingliz, o'zbek va rus tillari foydalanuvchilari uchun lug'atlar yaratishning lingvistik va amaliy asoslari .....	565
<b>Raxmonova Sardora Muminjonovna</b>	
Jismoniy tarbiya darslarini yangicha pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishning nazariy va amaliy asoslari .....	569
<b>Ro'zmetov Rasul Tangirberganovich</b>	
Sutemizuvchilarning kelib chiqishi va xilma-xilligi .....	573
<b>Xaqberdiyeva Shoira Tursunaliyevna, Sattorova Sanobar Boboqul qizi, Salimova Shahrizoda Ikromjon qizi</b>	
Raqamli muhitda voyaga etayotgan o'spirinlarda empatiya va ijtimoiy-emotsional rivojlanishning neyropedagogik xususiyatlari .....	578
<b>Shamsiddinov G'iyosjon Husniddin o'g'li</b>	
Bo'lajak muhandislarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda dasturlashtirilgan ta'lim vositalarining o'rni .....	583
<b>Sharipova Nodira Ilxom qizi</b>	
Digital Educational Technologies in Improving the Quality of Teaching: Methods and Practical Implementation .....	588
<b>Tashpulatova Nafisa Bakhtiyarovna</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ishonchni rivojlantirishda inklyuziv usullardan foydalanish .....	591
<b>To'laboyeva Irodaxon Maxammadali qizi</b>	
SRDM modeli orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida STEAM kompetensiyalari va Computational Thinking ko'nikmalarini shakllantirish .....	595
<b>Toshpulatova Niyoxon Shavkatjon qizi</b>	
Umumta'lim maktablarida fan to'garaklari faoliyatini tashkil etishning pedagogik shartlari .....	600
<b>Toshtemirova Dilnoza Abdug'ani qizi</b>	
Development of an Integrated Learning Module Based on Digital Technologies in the Educational Process .....	604
<b>Umirov Ilkhom Iskandar ugli</b>	
Muskul-skelet tizimi nuqsonli o'quvchilarning nozologik guruhlariga differensial yondashuv asosida adaptiv sportga yo'naltirish .....	608
<b>Uraimov Sanjar Ruzimatovich, Ubaydullayeva Dilnoza Muhammad qizi</b>	
Boshlang'ich ta'limda alohida ehtiyojga ega bo'lgan o'quvchilarni o'qitishning bugungi holati va muammolari tahlili .....	612
<b>Uroqova Yorqin qizi</b>	
Inklyuziv ta'lim muhiti asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining texnologiya darslarida ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi .....	615
<b>Xamidova Zarina Iskandar qizi</b>	
Qushlar migratsiyasi va uning ekologik sabablari .....	619
<b>Xaqberdiyeva Shoira Tursunaliyevna, Raximova Dilfuza Ilyos qizi, Saburova Sarvinoz Erkabay qizi</b>	
Imkoniyati cheklangan bolalarni jismoniy tarbiya va sportga jalb etishning nazariy va amaliy asoslari .....	623
<b>Xasanova Nilufar Raxmatovna</b>	
Raqamli avlod tarbiyasida milliy qadriyatlar va ota-onalarning virtual-pedagogik madaniyati uyg'unligi .....	628
<b>Xaydarova Xilola Raximberdiyevna</b>	
Разработка алгоритмов для визуализации и анализа решения задач линейного программирования .....	631
<b>Буронова Муниса Баходировна, Хакимов Дониёр Бахтиёр Угли</b>	
Ta'lim tizimida moliyaviy boshqaruv tushunchasi va iqtisodiy mazmuni .....	637
<b>Mannanova Maftuna Fazliddin qizi</b>	
Koreya ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari va uning pedagogik mohiyati .....	641
<b>Adamatov Anvar Ablaqulovich</b>	
Bo'lajak pedagoglarning raqamli didaktik kompetensiyasini rivojlantirish: muammo va yechimlar .....	645
<b>Uskanov Kaxramon Xalikulovich</b>	
Matematika fanini o'qitishda onlayn platformalardan foydalanish .....	648
<b>Mirzayeva Shahlo, Yorqulova Mashhura, Boboqulova Durdona</b>	



# IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI JISMONIY TARBIYA VA SPORTGA JALB ETISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

UDK: 796.011.2:376.2

Xasanova Nilufar Raxmatovna

"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini  
mexanizatsiyalashtirish muhandislari instituti"  
Milliy tadqiqot universiteti dotsenti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan bolalarni jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlariga jalb etishning nazariy va amaliy asoslari tadqiq etilgan. Bugungi kunda dunyo miqyosida millionlab bolalar nogironlikning turli shakllari bilan yashayotgani ularning salomatligini muhofaza qilish va teng imkoniyatlar yaratish zaruratini kuchaytirmoqda. Tadqiqot davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 8-noyabrdagi PQ-389-sonli qarori hamda "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonun normalari tahlil qilindi. Maqolada "Yangi O'zbekiston strategiyasi" doirasida adaptiv jismoniy tarbiya va sportning bolalar ijtimoiy integratsiyasidagi o'rni, sport infratuzilmasini moslashtirish muammolari hamda xalqaro tajribalar yoritilgan. Shuningdek, sport dasturlarini bolalar ehtiyojlariga moslashtirish orqali nafaqat jismoniy salomatlikni, balki ruhiy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** nogironligi bo'lgan bolalar, adaptiv jismoniy tarbiya, ijtimoiy integratsiya, sport infratuzilmasi, jismoniy reabilitatsiya.

**Abstract:** This article examines the theoretical and practical foundations of involving children with disabilities in physical education and sports activities. Today, millions of children worldwide live with various forms of disabilities, which necessitates the creation of equal opportunities for protecting their health and well-being. The study analyzes the provisions of the Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-389 dated November 8, 2024, as well as the Law "On the Rights of Persons with Disabilities." The article highlights the role of adaptive physical education and sports in the social integration of children within the framework of the "New Uzbekistan Strategy," while also analyzing the challenges of adapting sports infrastructure and international experiences in this field. Furthermore, scientifically grounded recommendations are proposed for ensuring not only physical health but also psychological stability through the adaptation of sports programs to children's needs.

**Key words:** children with disabilities, adaptive physical education, social integration, sports infrastructure, physical rehabilitation.

**Аннотация:** В данной статье исследуются теоретические и практические основы привлечения детей с ограниченными возможностями к занятиям физической культурой и спортом. В настоящее время миллионы детей во всем мире живут с различными формами инвалидности, что требует создания равных возможностей для охраны их здоровья. В ходе исследования были проанализированы нормы Постановления Президента Республики Узбекистан № PQ-389 от 8 ноября 2024 года, а также Закона "О правах лиц с инвалидностью". В статье раскрывается роль адаптивной физической культуры и спорта в социальной интеграции детей в рамках "Стратегии Нового Узбекистана", анализируются проблемы адаптации спортивной инфраструктуры и международный опыт. Также выдвинуты научно обоснованные предложения по обеспечению не только физического здоровья, но и психологической устойчивости посредством адаптации спортивных программ к потребностям детей.

**Ключевые слова:** дети с инвалидностью, адаптивная физическая культура, социальная интеграция, спортивная инфраструктура, физическая реабилитация.

## KIRISH

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) va Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'ylab taxminan 1 milliarddan ortiq, O'zbekistonda esa 1 milliarddan ziyod imkoniyati cheklangan insonlar mavjud bo'lib, bu jahon aholisining qariyb 15 foizini tashkil etadi [5].

YUNISEF ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda taxminan 240 millionga yaqin bolalar turli shakldagi nogironlikka ega bo'lib, ularning aksariyati rivojlanayotgan davlatlar hissasiga to'g'ri keladi [4].

Bugungi kunda zararli odatlar, yuqumli kasalliklar va tug'ma nuqsonlar kabi omillar ta'sirida imkoniyati cheklangan bolalar sonining ortib borishi kuzatilmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Imkoniyati cheklangan bolalar organizmi funksiyalarining doimiy buzilishi sababli qo'shimcha ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam hisoblanadi. Shu bois, O'zbekiston Respublikasida ushbu toifadagi shaxslar ijtimoiy integratsiyasini kuchaytirish bo'yicha mustahkam huquqiy baza yaratilgan. Xususan, "Yangi O'zbekiston strategiyasi"da yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish va jismonan sog'lom avlodni tarbiyalash ustuvor vazifa etib belgilangan [3].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 8-noyabrdagi PQ-389-sonli qarori esa nogironligi bo'lgan shaxslarni sport orqali jismoniy reabilitatsiya qilish tizimini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilmoqda [1].

Imkoniyati cheklangan bolalarni jismoniy tarbiyaga jalb etishdan asosiy maqsad - nafaqat salomatlikni saqlash, balki irodani shakllantirish, o'z-o'zini baholash va jamiyatda o'z o'rnini topishga ko'maklashishdir [10]. Bu jarayonda adaptiv sport dasturlarini joriy etish bolaning ruhiy va intellektual rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [7, 8].

Ushbu maqolaning maqsadi imkoniyati cheklangan bolalarni sportga yo'naltirishning psixologik va jismoniy jihatlarini tahlil qilishdan iborat. Bunda bolaning individual xususiyatlari, nogironlik turi va jismoniy imkoniyatlarini hisobga olgan holda sport turlarini to'g'ri tanlash metodologik asos bo'lib xizmat qiladi [11].

Ruhiy va ijtimoiy aspektlar, bolalarni sportga qiziqtirish va ularda ijobiy motivatsiyani shakllantirish juda muhim. Bu ularga o'z qobiliyatlariga ishonishga va o'zlariga bo'lgan ishonchini oshirishga yordam beradi [8].

Shuningdek, jamoaviy sport turlari bolaga jamoa bilan ishlashni, do'stlashishni va o'zaro yordam berishni o'rgatadi. Bu ularga ijtimoiy moslashishiga ko'maklashadi [9].

Inklyuziv muhitni yaratish maqsadida nogiron va sog'lom bolalarni bitta jamoada mashq qildirishga harakat qilish kerak. Bu bolaga ijtimoiy integratsiyaga yordam beradi va uning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi [7]. Ota-onalarning qo'llab-quvvatlashi va sport jarayoniga faol ishtirok etishi juda muhim.

Imkoniyati cheklangan bolalarni jismoniy tarbiya va sportga jalb etishdagi eng ahamiyatli tomoni bu - Maxsus sport infratuzilmaga e'tibordir, ya'ni imkoniyati cheklangan bolalar uchun moslashtirilgan sport inshootlari va jihozlar mavjudligi juda muhim [1]. Bu bolalarning xavfsizligi va samarali mashg'ulotlarini ta'minlaydi. Imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlash tajribasiga ega, maxsus tayyorgarlik ko'rgan trenerlar zarur [10]. Ular bolaning individual xususiyatlarini inobatga olib, mashg'ulotlarni rejalashtirishi va o'tkazishi zarur. Shuningdek, bolalarning sog'lig'ini muntazam nazorat qilish uchun shifokorning maslahati va doimiy nazorati zarur [5].

Imkoniyati cheklangan bolalarni jismoniy tarbiya va sportga jalb etish borasidagi maqsadlar va kutilayotgan natijalar, bolaga real va erishish mumkin bo'lgan maqsadlarni qo'yish zarur. Bu uning motivatsiyasini saqlab qolishga va sportga bo'lgan qiziqishini yo'qotmasligiga yordam beradi [12]. Shuningdek, bolaning sportdagi yutuqlarini muntazam baholash va muvaffaqiyatlari uchun taqdirlash zarur. Bu uning motivatsiyasini oshiradi va sportga bo'lgan qiziqishini mustahkamlaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'tkazilgan bir qancha tadqiqotlarning xulosalariga ko'ra, nogiron bolalarni shug'ullantirishning metodologik jihatdan yondashuvlarning variativligi mavjud emas, shuning uchun yuqorida sanab o'tilgan imkoniyatlarini, bolaning ruhiy xususiyatlari, qiziqishlari, bilishga bo'lgan ehtiyojini hisobga olgan holda muayyan sport bilan shug'ullanish dasturini aniqlash va tuzish zarur [11].

Jismoniy mashqlarni bajarish jarayonida nogironlik natijasida hayotiy cheklovlarga ega bo'lgan bola shaxsi rivojlanadi, ya'ni o'z-o'zini anglash (samoidentifikatsiya) va ijtimoiy faollik va atrofda dunyoni oqilona idrok etish, yangi atrof-muhitga moslashish va unda joylashgan obektlar bilan samarali o'zaro ta'sir qilish qobiliyati, stresslarga barqaror javob berish qobiliyati shakllanadi. Bunday bolalarga yordam ko'rsatish, ularni reabilitatsiya qilish va ijtimoiylashtirish uchun pedagoglar, massajchilar, jismoniy tarbiya o'qituvchilari adaptiv jismoniy tarbiya usullariga murojaat qiladilar [10]. Bu usullar tufayli nogiron bolalarning yashash qobiliyatini maksimal darajada rivojlantirish, ularning holati va rivojlanishini optimallashtirish mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, bolalar uchun sport fiziologik ehtiyoj, ammo imkoniyati cheklangan bolalar uchun jismoniy mashqlar ijtimoiy-biologik zaruriyat bo'lib, u jismoniy, ijtimoiy va ruhiy moslashuvning kalitidir [5]. Shuningdek, Adaptiv jismoniy tarbiya (AJT) imkoniyati cheklangan bolalar uchun nafaqat harakat vositasi, balki jismoniy va ijtimoiy reabilitatsiyaning universal mexanizmi hisoblanadi [10].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki [7, 8], AJT quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

1. **Kompensator ko'nikmalarni shakllantirish:** Tiklab bo'lmaydigan nuqsonlarni boshqa harakat a'zolarining faolligini oshirish orqali qoplash;
2. **Psixologik depressiyani bartaraf etish:** Passivlik, yuqori hayajon va "nomukammallik kompleksi"ni faol sport faoliyati orqali korreksiya qilish [7];



**3. Immun tizimini mustahkamlash:** Suzish, chiniqish va turli yuzalarda (qum, shag'al) harakatlanish orqali organizmning tashqi muhitga chidamliligini oshirish.

Sport tadbirlarida ishtirok etish bolaning "Men" konsepsiyasini ijobiy tomonga o'zgartiradi<sup>[9]</sup>. Yuqori natijalarga erishgan imkoniyati cheklangan sportchilarning namunasi bolalarda kuchli motivatsiya uyg'otib, ularni jamiyatning faol a'zosiga aylanishiga zamin yaratadi<sup>[12]</sup>.

Imkoniyati cheklangan bola sport tadbirlarida ishtirok etib, o'zini shaxs sifatida namoyon qilishi mumkin. Bu jarayonda u musobaqa ishtirokchilariga hamdardlik bildiradi, o'zini kim bilandir tenglashtiradi, idrokning hissiy-obrazli darajasida xarakter xususiyatlarini shakllantiradi va qabul qiladi. Bolalarga ularning ahamiyatini ko'rsatish muhimdir<sup>[8]</sup>.

Imkoniyati cheklangan sportchi o'zining matonati, g'alabaga bo'lgan ishtiyoqi bilan xalq orasida hayrat va hayajon uyg'otadi, imkoniyati cheklangan bolalarda esa o'z-o'ziga bo'lgan munosabat tubdan o'zgaradi.

Shu narsaga to'xtalib o'tish lozimki, bugungi kunda Paralimpiya o'yinlarida ishtirok etayotgan imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan sportchilarning soni keskin ortib bormoqda<sup>[12]</sup>.

1960-yilda Rimda bo'lib o'tgan Birinchi Yozgi o'yinda faqat aravchada harakatlanuvchi sportchilar ishtirok etishgan bo'lsa, XVII yozgi Paralimpiya o'yinlari (Parij, 2024) musobaqalarida 182 mamlakatdan 4400 nafar sportchi ishtirok etdi<sup>[12, 13]</sup>.

Biz ushbu maqolada imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan bolalarni sportga jalb qilishda shug'ullanishi mumkin bo'lgan sport turlari haqida ma'lumotlarni keltirib o'tamiz:

Imkoniyati cheklangan shaxslar uchun har bir insonning o'ziga xos ehtiyojlari va imkoniyatlariga qarab moslashtirilishi mumkin bo'lgan turli xil sport turlari mavjud<sup>[7]</sup>.

Imkoniyati cheklangan bolalarni jalb etish mumkin bo'lgan sport turlariga quyidagilar kiradi:

- Sport o'yinlari:** Aravchadagi basketbol (Wheelchair basketball), 5×5 futbol (zaif ko'ruvchilar uchun), 7×7 futbol (markaziy asab tizimi buzilishlari bo'lgan bolalar uchun), o'tirib o'ynaladigan voleybol, Bochcha (harakatlanishida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun)<sup>[12]</sup>.
- Suv sport turlari:** Suzish (parasuzish), Akvaterapiya, baydarka va kanoeda eshkak eshish (adaptiv)<sup>[8]</sup>.
- Yakkakurash sport turlari:** paradyudo (ko'rishida nuqsoni bo'lgan shaxslar uchun), paratxekvondo, parakarate, adaptiv aykido.
- Yengil atletika (paraatletika):** yugurish, yadro itqitish, disk va nayza uloqtirish, sakrash, nogironlar aravachasida poyga<sup>[12]</sup>.
- Qishki sport turlari:** chang'i poygasi, adaptiv biatlon, tog' chang'isi, adaptiv snoubord.
- Velosport:** ko'zi ojizlar uchun tandem velosiped, uch va to'rt g'ildirakli velosipedlar, qo'l velosipedi (hand-bike).
- Texnik va o'q otish turlari:** kamondan otish, pnevmatik quroldan para o'q otish; stol tennisi (paratennis)<sup>[9]</sup>.
- Ot sporti:** ippoterapiya (reabilitatsiya), para ot sporti (musobaqa)<sup>[10]</sup>.
- Badiiy-estetik yo'nalishlar:** adaptiv xoreografiya, nogironlar aravachasidagi raqslar, adaptiv cherliding.
- Sportning intellektual turlari:** shaxmat, shashka, stol ustida o'ynaladigan mantiqiy o'yinlar.

Imkoniyati cheklangan bolaga sport turini qanday tanlash kerak?

Bolalar uchun adaptiv sport turini tanlashning kompleks algoritmi quyidagi mezonlarga asoslanadi<sup>[10, 11]</sup>:

- Tibbiy-funksional ko'rsatkich:** Kasallikning etiologiyasi va darajasi (nozologiya)<sup>[5]</sup>.
- Psixologik diagnostika:** Bolaning shaxsiy qiziqishlari va ijtimoiy adaptatsiyaga tayyorligi<sup>[8]</sup>.
- Moddiy-texnik baza:** Hududdagi sport inshootlarining inklyuziv talablarga mosligi (PQ-389-sonli qaror talablari asosida)<sup>[2]</sup>.
- Mutaxassis tavsiyasi:** Reabilitolog va maxsus tayyorgarlikka ega trenerning xulosasi<sup>[10]</sup>.

1-jadval: **Nozologik guruhlar bo'yicha tavsiya etiladigan sport turlari tasnifi**

Sport turi	Nuqsonlar va kasalliklar turi (Ko'rsatmalar)
Suzish (parasuzish)	BSF (bolalar serebral falaji), tayanch-harakat a'zolari shikastlanishi, mushak gipotoniyasi
Bochcha	Og'ir harakat buzilishlari, markaziy asab tizimi shikastlanishi, kam harakatlilik

<b>Aravchadagi basketbol va voleybol</b>	Umurtqa pog'onasi shikastlanishi, pastki a'zolar amputatsiyasi va zaifligi
<b>Paradzyudo</b>	Ko'rish qobiliyatida nuqsoni bo'lgan (ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi) bolalar
<b>Ippoterapiya (ot sporti)</b>	BSF, autizm (RAS), motorika va muvozanat buzilishlari
<b>Intellectual o'yinlar</b>	Yengil kognitiv buzilishlar, autizm, nutq nuqsonlari

### Tadqiqot metodlari

Ushbu maqolani tayyorlashda imkoniyati cheklangan bolalarni jismoniy tarbiya va sportga jalb etishning nazariy va metodologik asoslarini o'rganish maqsadida quyidagi ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi:

- Nazariy tahlil va sintez:** Mavzu doirasidagi mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, darsliklar hamda xalqaro tashkilotlarning (JSST, BMT, YUNISEF) hisobotlari qiyosiy tahlil qilindi <sup>[4, 5]</sup>.
- Meyoriy-huquqiy hujjatlar tahlili:** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-389-sonli (2024-yil 8-noyabr) va boshqa sohaga oid qarorlarining mazmun-mohiyati hamda amaliyotga tatbiq etilish holati o'rganildi <sup>[1, 2]</sup>.
- Tizimli yondashuv:** Imkoniyati cheklangan bolalar uchun adaptiv jismoniy tarbiyaning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy jihatlari yaxlit tizim sifatida tadqiq etildi <sup>[10, 11]</sup>.
- Umumlashtirish va klassifikatsiya:** Mavjud muammolar va ularning yechimlari bo'yicha ilmiy ma'lumotlar guruhlandi va xulosalar shakllantirildi.

Tadqiqot bazasi sifatida 2018-2024 yillar oralig'ida chop etilgan 15 dan ortiq ilmiy maqola va normativ hujjatlardan foydalanildi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda adaptiv sport nafaqat jismoniy salomatlikni tiklash, balki inkluziv jamiyat qurishning asosiy mexanizmi hisoblanadi.

Muhokama jarayonida aniqlandiki:

- Sport bilan muntazam shug'ullanuvchi imkoniyati cheklangan bolalarda ijtimoiy depressiya darajasi 30-40 foizga kamayadi <sup>[8, 9]</sup>.
- Adaptiv sport mutaxassislarining yetishmovchiligi nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishda asosiy to'siq bo'lib qolmoqda <sup>[10]</sup>.
- Davlat tomonidan berilayotgan imtiyozlar (bepul sport obektlari) ota-onalarning sportga bo'lgan qiziqishini oshirmoqda, biroq metodik qo'llanmalarning kamligi sezilmoqda <sup>[1, 13]</sup>.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan adabiyotlar tahlili va sohadagi mavjud holatni o'rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

- Integratsiyaning ahamiyati:** Nogironligi bo'lgan bolalarni sportga jalb etish nafaqat jismoniy reabilitatsiya, balki ularning jamiyatga ijtimoiylashuvi (sotsializatsiyasi) uchun asosiy vositadir <sup>[7]</sup>. Bu jarayonda "integratsiyalashgan sport" bolalardagi psixologik to'siqlarni yengishga yordam beradi.
- Tizimli yondashuv:** Prezidentning PQ-389-sonli qarori sohadagi huquqiy bo'shliqlarni to'ldirgan bo'lsa-da <sup>[1]</sup>, mahalliy darajada moslashtirilgan sport inshootlari va mutaxassis kadrlar yetishmovchiligi hali ham dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.
- Adaptiv jismoniy tarbiya:** Nogironligi bo'lgan bolalar uchun universal mashg'ulotlar yo'q, shuning uchun har bir bolaning nozologiyasiga qarab individual rivojlanish trayektoriyasini ishlab chiqish zarur <sup>[10, 11]</sup>.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- Inkluziv sport to'garaklari:** Oliy va o'rta maxsus sport ta'limi muassasalarida "Adaptiv jismoniy tarbiya va sport" yo'nalishi bo'yicha mutaxassislar tayyorlashni kuchaytirish.
- Infratuzilmani moslashtirish:** Mavjud sport inshootlarini nafaqat texnik, balki metodik jihatdan ham to'liq moslashtirish <sup>[1, 12]</sup>.
- Rag'batlantirish mexanizmi:** Ota-onalar va trenerlar uchun alohida ijtimoiy va moddiy imtiyozlar tizimini yanada kengaytirish.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 8-noyabrdagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarni sportga jalb etish orqali jismoniy reabilitatsiya qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-389-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 15-oktabrdagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi O'RB-641-son Qonuni.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - T.: "O'zbekiston", 2021. - 464 b.
4. UNICEF Data. Nearly 240 million children in the world today have some form of disability. Overview report, June 15, 2023.
5. World Health Organization (WHO). Global report on health equity for persons with disabilities. Geneva, 2022.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi ma'lumotlari. 2026 yil 1 yanvar holatiga ko'ra O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslar statistikasi.
7. Ryan J.B., Katsiyannis A., et al. Establishing Adaptive Sports Programs for Youth with Moderate to Severe Disabilities. Preventing School Failure: Alternative Education for Children and Youth, 58:1, 2014, pp. 32-41.
8. Isidoro-Cabañas E., et al. Benefits of Adaptive Sport on Physical and Mental Quality of Life in People with Physical Disabilities: A Meta-Analysis. Healthcare, vol. 11, no. 18, 2023, p. 2480.
9. Tow S., Nelson M.R. Adaptive Sports, Arts, Recreation, and Community Engagement. PMC, September 16, 2021.
10. Maxkamov U.I. Moslashuvchan jismoniy tarbiya va sport. Darslik. - T.: 2021.
11. Yunusova Y.M. Teoriya i metodika fizicheskoy kulturi. - T.: 2017.
12. International Paralympic Committee. History of the Paralympic Movement. [Elektron resurs]. URL: [www.paralympic.org](http://www.paralympic.org) (murojaat sanasi: 25.03.2026).
13. Lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №5(2)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.